

MUMTOZ ADABIY TUR VA NAVLARI TASNIFI VA TADQIQOTI TARIXIDAN.

Abdurahmonova mavluda Ibragimovna

Termiz davlat universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

abduraxmonovamavluda6@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mumtoz adabiyot haqida ma'lumotlar berildi. Mumtoz she'riyat tur vashakllari haqida ma'lumot berildi. Mumtoz she'riyat qonun-qoidalari, an'ana va unsurlari haqida lavhalar, bu janrga o'z davrida ijod qilgan hissa qo'shgan adiblar ijodiy faoliyatiga nazar tashlandi. mumtoz adabiyot atamaları bo'yicha maxsus va zarur lug'atlar tuzish ishlari ham yaxshi yo'lga qo'yilganligi o'rganildi.

Kalit so'zlar: Mumtoz adabiyot, adabiy tur, she'r, turkiy xalqlar adabiyoti, mumtoz tur.

O'zbek mumtoz she'riyati va uning tur, nav hamda xillarini tadkik etish jarayoni o'z tarixiga ega. Mumtoz she'riyatimiz tur va she'r shakllari, avvalo, turkiy xalqlar og'zaki ijodiyoti kuchogida kamol topib yozma adabiyotga ko'chib kirgan. Turkiy xalqlar adabiyoti o'z ichki imkoniyatlari doirasida rivojlanish bilan bir qatorda boshqa ko'shni xalqlar adabiyoti tajribalaridan ham baxra olib turgani sir emas. Mumtoz she'riyat an'analari va uning tadrijiy tarixini o'r[anishda birinchi galda qadimiy manbalarga murojaat qilamiz. Mumtoz shs'riyat qoidalari o'tmishda besh yo'nalishda, ya'ni ilmi aruz, ilmi qofiya, ilmi bade', she'r navlari va muammo tarzida o'rganilgan. Bu sohadagi izlanishlar va" risolalar dastlab arab hamda fors-tojik tillarida yaratilgan, ulardan o'z navbatida Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy, mutafakkir Alisher Navoiy, xassos ijodkor Zahiriddin Muhammad Boburlar yaratgan asarlarida unumli fo y dalanganlar. Mumtoz she'riyat qonun-qoidalari, an'ana va unsurlari Umar Roduyoniy(X1 asrda yashab ijod kilgan)ning "Tarjimon ul-baloga" (1114 yil ko'chirilgan), Rashiduddin Vatvot(vaf. 1182)ning "Hadoiq us-sehr fi daqoiq ish-she'r" (hadoiq - hadiqaning ko'pligi - bog, daqoiq - daqiqning ko'pligi - nozik), Shamsuddin Qays Roziyning "Al-mu'jam" (to'liq nomi "Al-mu'jam fi maoyir-il-ash'or-ul- Ajam", XSh asr), Nasiriddin Tusiyning "Me'yor ul-ash'or" va "Asos ul- iqtibos"(XSh asr), Xusrav Dexlaviy (1253-1325) "E'jozi Xusraviy" (XIV asr), Husayn Koshifiy(1420-1505)ning "Badoe' ul-afkor fi sanoe' il-ash'or" (XV asrX Atoulo Husayniy(1440-1513)ning "Badoe' us-sanoe'" (1492), Vohid Tabriziyning "Jami muxtasar" (XV asr), Qabul Muhammadning "Haft kulzum" (XIX asr) va boshqa talay asarlarda taxlil etilgan.

Mumtoz she'riyat, umuman, mumtoz adabiyot turlari va navlari o'zbek allomalaridan Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziyning "Funun ul-baloga" (XV asr) Alisher Navoiyning "Mezon ul-avzon", "Muhokamat ul-lugatayn", "Mufradot", "Majolis un-nafois", "Nasoyim ul-muhabbat", Boburning "Boburnoma", "Mufassal" ("Muxtasar" nomida nashr etilgan) asarlarida tadqiq etiladi. Keyingi asrlarda ayniksa, XX asr boshlarida mumtoz adabiyot janrlarini tadqiq etishga ma'lum e'tibor qaratildi. Chunonchi o'zbek professorlaridan A.Sa'diy va A.Fitratlar tomonidan yaratilgan "Amaliy ham nazariy adabiyot darslari" (1924) hamda "Adabiyot qoidalari" (1926) risolalari diqqatga sazovordir. Shuningdek, XX asrning 20-yillarida Vadud Mahmud, Sotti Husayn, Elbek kabi ijodkorlarning ham bu boradagi kuzatuvlari o'sha davr vakgli matbuot sahifalarida e'lon qilib turildi. Masalan, adabiy turlar bahsiga doir Sa'diy, Fitrat va V.Mahmudlarning matbuotdagi munozarali chiqishlari olqishga loyikdir. Masalan Fitrat xalq og'zaki ijodiyoti (fol'klor) ni el adabiyoti, Sa'diy omma adabiyoti va nihoyat V.Mahmud ulus adabiyoti deb atash fikrlarini izhor etadi. Fol'klorning el adabiyoti deb atash ko'p jixatdan maqbul bo'lgan holda Fitrat kamtarlik kilib A.Sa'diyning omma adabiyoti atamasiga muvofiqlik bildiradi. Cho'lpon ham o'zining "Adabiyot nadir" asarida bu masalalarga ozmi-ko'pmi munosabat izhor etadi.

Mumtoz she'riy janrlarni maxsus o'rganish o'zbek adabiyotshunosligida o'tgan asrning 40-50-yillaridan ibtido topdi. Shu tariqa taxdilga jalb etilgan mavzu doir akademik adib Oybek (1905-1968), xassos shoir M.Shayxzoda (1908-1967), atoqli olim N.Mallaev (1923-1996) larning Alisher Navoiy g'azaliyotiga bog'lik kuzatishlari alohida diqqatlidir. Shu tariqa olimlardan Ye.Ishoqov, M.Yunusov va I.Haqqulovlarning ruboiy, O.Nosirovning g'azal, R.Orzibekovning g'azal va musammat, M.Abduvohidovning munozara, M.Jamolovanning noma, M.Oymatovanning fard janrlariga oid tadqiqotlari paydo bo'ldi. M.Mamatkulovning esa turkiy xalqlar adabiyotida janrlar poetikasi haqidagi ilmiy ishi yuqoridagi tadqiqotlar sirasiga ko'shilgan ajoyib ulushligi bilan ajralib turadi.

Ko'zga ko'ringan atokli olimlardan akademik V.Abdullaev, V.Zohidov, I.Sulton, B.Valixojayev, A.Rustamov, professorlardan P.Shamsiev, N.Mallaev, G'.Karimov, A.Hayitmetov, S.G'anieva, U.To'ychievlar mumtoz she'riyatni tadqiq etishda samarali ishlarni amalga oshirdilar. Bu an'anani H.Homidiy, Sh.Abdullaeva, S.Ibrohimova, T.Boboev, S.Jamolov, M.Ziyoviddinov, N.Shukurov, N.Hotamov, Sh.Xolmatov, M.Mahmudov, A.Zunnunov, A.Hojiaxmedov, B.Sarimsoqov, E.Xudoyberdiev, V.Rahmonov singari yetuk adabiyotshunoslar davom ettirdilar. Shuningdek, mumtoz adabiyot atamalari bo'yicha mahsus va zarur lug'atlar tuzish ishlari ham yaxshi yo'lga qo'yildi.